

**XALQARO QISHLOQ XO‘JALIGI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PHD.05/15.12.2022.I.155.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY  
TADQIQOT UNIVERSITETI**

**SAYDULLAYEVA FOTIMA JOZILOVNA**

**TOMORQA XO‘JALIKLARIDA MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHNI  
DIVERSIFIKATSIYALASHNING AHOLI OVQATLANISHIGA TA’SIRI**

**08.00.04 – “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
in economic sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Saydullayeva Fotima Jozilovna**

Tomorqa xo'jaliklarida mahsulotlar ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashning aholi ovqatlanishiga ta'siri (Samarqand viloyati misolida).....5

**Saydullaeva Fotima Jozilovna**

Diversification of production in tomorka farms and its impact on the dietary of the population (The case of Samarkand region) .....25

**Saydullayeva Fotima Jozilovna**

Диверсификация производства в приусадебных хозяйствах и ее влияние на питание населения (на примере Самаркандской области).....47

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....52

**XALQARO QISHLOQ XO‘JALIGI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PHD.05/15.12.2022.I.155.01**

**RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY  
TADQIQOT UNIVERSITETI**

**SAYDULLAYEVA FOTIMA JOZILOVNA**

**TOMORQA XO‘JALIKLARIDA MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHNI  
DIVERSIFIKATSIYALASHNING AHOLI OVQATLANISHIGA TA’SIRI  
(SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)**

**08.00.04 - Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**



## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo aholisi sonining o'sib borayotganli sharoitida iqlim o'zgarishi, siyosiy-ijtimoiy vaziyatlar keskinlashuvi, yuqumli kasalliklar bilan bog'liq yangi muammolar oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ta'minot zanjirining buzilishiga, natijada insonlarning oziq-ovqat iste'moli imkoniyatlarini qisqarishiga olib kelmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi (FAO) tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra "2030-yilga borib ochlikdan aziyat chekayotgan aholi soni bir milliarddan oshishi va barqaror maqsadlarga erishish imkoniyatining kamayishi taxmin qilinmoqda"<sup>1</sup>. Qishloq xo'jaligi sohasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida importga qaramlikni kamaytirish, mahalliy oziq-ovqat ishlab chiqarishni kuchaytirish, sog'lom ovqatlanishni yo'lga qo'yishda xo'jaliklarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va diversifikatsiya qilish choralari izlash muhim masalalardan sanaladi.

Dunyoda qishloq aholisining yashash sharoitlarini yaxshilash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun kichik xo'jaliklarda oziq-ovqat mahsulotlarini samarali yetishtirish orqali yetarli hajmda, sifatli va arzon oziq-ovqat bilan ta'minlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu sohada barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlari, yangi innovatsion texnologiyalar va intensiv usullardan foydalanish hamda raqamli platformalar yaratishga oid iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarni ishlab chiqishga doir ilmiy-tadqiqot ishlari muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar rejasida "aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini oziq-ovqat bilan ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini ijtimoiy obyektlar bilan integratsiyalash, xalqaro darajada tan olingan uslubiyotlar va ilg'or tajribalar asosida oziq-ovqat xavfsizligini baholash tizimini joriy qilish hamda doimiy monitoring qilish, sog'lom iste'mol madaniyatini targ'ib qilish bo'yicha dastur ishlab chiqish, ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulot turlari ishlab chiqarishni intensivlashtirishga doir tarmoq dasturlarini ishlab chiqish, chorvachilikda mahsuldorlikni oshirish, baliq va parranda go'shti, shuningdek, sut ishlab chiqarishni barqaror intensivlashtirishga qaratilgan tadqiqot ishlarini olib borish"<sup>2</sup> kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni ijrosini ta'minlashda qishloq hududlari aholisining oziq-ovqat manbai tomorqa xo'jaliklari mahsulotlari ishlab chiqarishini diversifikatsiyalashining rag'batlantiruvchi mexanizmlarini ishlab chiqish hamda xalqaro standartlar, ko'rsatkichlardan foydalanib tadqiqotlar olib borishda mazkur dissertatsiya mavzusi dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilning 10-sentabridagi PF-5199-son "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali

---

<sup>1</sup> World Health Organization. (2020). The state of food security and nutrition in the world 2020: transforming food systems for affordable healthy diets (Vol. 2020). Food & Agriculture Org.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. 23.10.2019. PF-5853-son.

foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son "2022 - 2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 10-oktabridagi PQ-3318-son "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yilning 11-oktyabrdagi PQ-4887-son "Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2023-yil 5-apreldagi PQ-113-son "2023-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlar, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-oktyabrdagi 624-son "Tomorqada mahsulot yetishtirishni qo'llab-quvvatlash va uni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi hukumati ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qaror hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada hissa qo'shadi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Dissertatsiya respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Qishloq xo'jaligida mavjud oilaviy xo'jaliklarda mahsulotlarni diversifikatsiyalashning ovqatlanishga ta'sirini birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlardan foydalanib, Xouks K., Ruel M.T., Olderman X., Akramov, K.T., Pinstrup-Andersen P., Xidi, D.D., Olni K.V., Dina K., Takeshima H., Lombardozi L., Konrad M., Eker O., Mulva C., Muthini D., Zanello G., Islam A., Huang Y<sup>3</sup>. kabi xorij olimlari o'rgangan.

---

<sup>3</sup> Hawkes, C., & Ruel, M. T. (2008). From agriculture to nutrition: Pathways, synergies and outcomes; Hawkes, C., & Ruel, M. T. (2006). Agriculture and nutrition linkages old lessons and new paradigms: understanding the links between agriculture and health (No. 13 (4)). International Food Policy Research Institute (IFPRI); Pinstrup-Andersen, P. (2013). Nutrition-sensitive food systems: from rhetoric to action. *The Lancet*, 382(9890), 375-376; Ruel, M. T., & Alderman, H. (2013). Nutrition-sensitive interventions and programmes: how can they help to accelerate progress in improving maternal and child nutrition? *The lancet*, 382(9891), 536-551; Ruel, M. T., Quisumbing, A. R., & Balagamwala, M. (2018). Nutrition-sensitive agriculture: what have we learned so far?. *Global food security*, 17, 128-153; Olney, D. K., Talukder, A., Iannotti, L. L., Ruel, M. T., & Quinn, V. (2009). Assessing impact and impact pathways of a homestead food production program on household and child nutrition in Cambodia. *Food and Nutrition Bulletin*, 30(4), 355-369; Headey, D. D., & Hoddinott, J. (2016). Agriculture, nutrition and the green revolution in Bangladesh. *Agricultural Systems*, 149, 122-131; Ruel, M. T., & Brouwer, I. D. (2021). Nutrition: Transforming food systems to achieve healthy diets for all. IFPRI book chapters, 36-43.; Njuki, J., Benin, S., Marivoet, W., Ulimwengu, J. M., Mwongera, C., Breisinger, C., ... & Piñeiro, V. (2022). Regional developments [in 2022 Global Food Policy Report]. IFPRI book chapters, 114-145; Takeshima, H., Akramov, K., Park, A., Ilyasov, J., Liu, Y., & Ergasheva, T. (2020). Agriculture–nutrition linkages with heterogeneous, unobserved returns and costs: Insights from Tajikistan. *Agricultural Economics*, 51(4), 553-565.; Lombardozi L., *The Nexus Between The Role Of The State, Market Transition And Food Consumption : The Case Of Samarkand, Uzbekistan*. PhD thesis. SOAS, University of London 2018. DOI: <https://doi.org/10.25501/SOAS.00032802>; Murendo, C., Gwara, S., Mazvimavi, K., & Arensen, J. S. (2019). Linking crop and livestock diversification to household nutrition: Evidence from Guruve and Mt Darwin districts Zimbabwe. *World Development Perspectives*, 14, 100104.; Ecker, O. (2018). Agricultural transformation and food and nutrition security in Ghana: Does farm production diversity (still) matter for household dietary diversity?. *Food policy*, 79, 271-282.; Mulwa, C. K., & Visser, M. (2020). Farm diversification as an adaptation strategy to climatic shocks and implications for food security in northern Namibia. *World Development*, 129, 104906.; Muthini, D., Nzuma, J., & Nyikal, R. (2020). Farm production diversity and its association with dietary diversity in Kenya. *Food Security*, 12, 1107-1120.; Zanello, G., Shankar, B., & Poole, N. (2019). Buy or make? Agricultural production diversity,

Mamlakatimiz misolida dehqon-tomorqa xo‘jaliklari resurslaridan samarali foydalanish, ular yetishtirayotgan mahsulotlarning samaradorligiga ta‘sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar tahlili O‘Umurzakov N.Xushmatov, Q.Choriyev, A.Chertoviskiy, I.Rustamova, R.Husanov, O.Murtazayev va F.Ahrorov<sup>4</sup> kabi iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini diversifikatsiya qilishda ekin maydonlaridan samarali foydalanish va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashdagi ahamiyati respublikamiz olimlaridan Sh.Hasanov, I.Bobojonov, N.Djanibekov, I.Rudenko, K.Akramov, D.Saidova, G.Samiyeva, A.Ergashev, A.Primovlar<sup>5</sup>ning ilmiy tadqiqot ishlarida keltirib o‘tilgan.

Qator tadqiqotlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini diversifikatsiyalashning qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish va samaradorlikni oshirishdagi ahamiyati yoritilgan, biroq uning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashdagi roli kamroq o‘rganilgan. Shu sababli, jahon miqyosida yuz berayotgan turli tabiiy, ijtimoiy va siyosiy vaziyatlarni hisobga olgan holda, mamlakatimizda tomorqa xo‘jaliklari mahsulotlarini diversifikatsiyalashning turli ijtimoiy-iqtisodiy omillarni inobatga olib, uy xo‘jaliklari ovqatlanishiga ta‘sirini ilmiy-amaliy o‘rganish ishning zaruriyatini belgilaydi.

**Tadqiqotning maqsadi** tomorqa xo‘jaligi mahsulotlarini diversifikatsiyalashning uy xo‘jaliklarida ovqatlanish diversifikatsiyasiga ta‘sirini baholash hamda uni oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tomorqa xo‘jaliklarida ishlab chiqarish diversifikatsiyasini nazariy asoslash;

---

markets and dietary diversity in Afghanistan. *Food Policy*, 87, 101731.; Islam, A. H. M. S., von Braun, J., Thorne-Lyman, A. L., & Ahmed, A. U. (2018). Farm diversification and food and nutrition security in Bangladesh: empirical evidence from nationally representative household panel data. *Food security*, 10, 701-720.;Huang, Y., & Tian, X. (2019). Food accessibility, diversity of agricultural production and dietary pattern in rural China. *Food Policy*, 84, 92-102.

<sup>4</sup> Хушматов Н.С. Деҳқон (фермер) хўжаликларини ташкил этиш самарадорлиги ва уларнинг бошқа ташкилотлар билан ўзаро муносабатларини такомиллаштириш: авт. дис. ... и.ф.н. – Т., 1994.; Умурзаков У.П., Чориев К.А. Организационно-экономических и правовых основы реструктуризации сельскохозяйственных предприятий на переходном этапе. – Т., Мехнат, 1997. – с 79.; Хусанов Р.Х. Аграрная реформа: тенденция, практика, проблемы. – Т.: Узбекистан, 1994. – 74 с.; Рустамова И.Б. Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини ташкил этиш. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 508 б.; Муртазаев О., Ф.Б.Ахроров. Қишлоқ хўжалиқ иқтисодиёти. – Т., Илм-Зиё, 2017 й.

<sup>5</sup> Hasanov, Sh. (2016): Agricultural policies to enhance the development of fruit and vegetable subsectors in Uzbekistan. *European Scientific Journal*, vol. 12 (13), May 2016. <http://dx.doi.org/10.19044/esj.2016.v12n13p479> Bobojonov, I., Lamers, J. P. A., Bekchanov, M., Djanibekov, N., Franz-Vasdeki, J., Ruzimov, J., & Martius, C. (2013). Options and constraints for crop diversification: A case study in sustainable agriculture in Uzbekistan. *Agroecology and Sustainable Food Systems*, 37(7), 788-811. <http://doi.org/10.1080/21683565.2013.775539>; Lombardozi, L., & Djanibekov, N. (2021). Can self-sufficiency policy improve food security? An inter-temporal assessment of the wheat value-chain in Uzbekistan. *Eurasian Geography and Economics*, 62(1), 1-20.; Kienzler, K. M., Rudenko, I., Ruzimov, J., Ibragimov, N., & Lamers, J. P. (2011). Winter wheat quantity or quality? Assessing food security in Uzbekistan. *Food Security*, 3, 53-64.; Akramov, K. T. (2011). International food prices, agricultural transformation, and food security in Central Asia. *Development in Practice*, 21(4-5), 741-754.; Nurmatovna, S. D. (2022). Main risks and factors of food security in uzbekistan. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(6), 1696-1703.; Самиева Г.Т. Деҳқон хўжаликларида ишлаб чиқаришни диверсификациялаш йўналишлари: дисс...авт. и.ф.н – Тошкент, 2019. Ergashev A. Analysis of fruit and vegetable supply, demand, diet quality and nutrition in Uzbekistan : дис. – Universitäts-und Landesbibliothek Bonn, 2017.; Примов А.Э. Қишлоқ хўжалиги экинларини диверсификациялашнинг фермер хўжаликлари иқтисодий самарадорлигига таъсирини баҳолаш: дисс...авт. и.ф.н. – Тошкент, 2022.

tomorqa mahsulotlarini diversifikatsiyalashning uy xo'jaliklari ovqatlanishiga ta'sirini baholashni ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining hozirgi holatini tahlil qilish va o'zgarishlar dinamikasini aniqlash;

tomorqa xo'jaliklarida mahsulot ishlab chiqarish diversifikatsiya darajasini aniqlash;

oziq-ovqat iste'moli diversifikatsiyasiga omillar ta'sirini ekonometrik model orqali baholash;

uy xo'jaliklari oziq-ovqat diversifikatsiyasini oshirishni rag'batlantiruvchi mexanizmni ishlab chiqish;

tomorqa xo'jaliklarida ishlab chiqariladigan oziq-ovqatning 12 guruhiga kiruvchi mahsulotlarni istiqboldagi ishlab chiqarish prognozlarini aniqlash.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Samarqand viloyati tomorqa xo'jaliklari tanlab olindi.

**Tadqiqotning predmeti** tomorqa xo'jaliklarida mahsulot ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashning uy xo'jaliklari ovqatlanish xilma-xilligiga ta'sir etishi jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardir.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida taqqoslama tahlil, abstrakt fikrlash, statistik va ekonometrik modellashtirish, so'rovnoma, grafik, indeks baholash va boshqa usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tomorqa xo'jaliklarida o'simlikchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish diversifikatsiyasi "quyi" ( $1 < HHI \leq 0,7$ ), "o'rta" ( $0,7 \leq HHI < 0,4$ ) va "yuqori" ( $0,4 \leq HHI < 0$ ) mezonlar bo'yicha tomorqa xo'jaligi boshqaruvini maqbullashtirish taklif etilgan;

oziq-ovqat xavfsizligiga davlat yordamini kuchaytirishda (barqaror qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, suv va energiya ta'minotidan barqaror foydalanish, iqlimdan oqilona foydalanish, qayta ishlash va saqlash uchun maqbul ishlab chiqarish amaliyotlari hamda hosildan keyingi yo'qotishlarni kamaytirishga qaratilgan) subsidiyalar ajratish bo'yicha yagona siyosat olib borilishining maqsadga muvofiqligi asoslangan;

tomorqa xo'jaliklarida 12 guruh (dukkaklilar, meva-sabzavot, go'sht, sut, asal)dagi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning 2028-yilgacha prognoz parametrlari hisoblab chiqilgan;

qishloq joylarida uy xo'jaliklariga "o'z-o'zini ta'minlash-zahira-realizatsiya" bo'yicha tartibga solingan raqamli dasturlash ta'minotini joriy qilish markazini mahallalarda tashkil qilish orqali barqaror oziq-ovqat ta'minotiga erishishga qaratilgan rejali-iqtisodiy mexanizm ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tomorqa xo'jaliklarida mahsulotlar ishlab chiqarish diversifikatsiyasini oshirishning obektiv zarurligi, uy xo'jaliklari ovqatlanish xilma-xilligini ta'minlashdagi o'zi xos xususiyatlari nazariy jihatdan asoslangan;

rivojlangan xorijiy davlatlar qishloq xo'jaligidagi kichik xo'jaliklarning aholi oziq-ovqat xavfsizligini oshirishdagi muvaffaqiyatli tajribalari o'rganilgan va tomorqa xo'jaliklarida foydalanish yo'llari belgilab berilgan;

tomorqa xo'jaliklari mahsulotlar ishlab chiqarishini diversifikatsiyasini oshirishning davlat tomonidan iqtisodiy qo'llab-quvvatlashning subsidiyalash mexanizmini rag'batlantirish taklif etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiya ishida foydalanilgan ma'lumotlar uzoq muddatlilik va rasmiy manbalardan olinganligi, respublika va xorij iqtisodchi olimlarining oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli diversifikatsiyasiga qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishning ta'sirini baholashga doir tadqiqot ishlari ilmiy-uslubiy natijalariga tayanilganligi, Samarqand viloyati tumanlari kesimida tomorqa xo'jaliklaridan to'plangan so'rovnoma ma'lumotlariga asoslanganligi, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalariga asosan, tomorqa xo'jaliklarida mahsulot ishlab chiqarish diversifikatsiyasini oshirishning oziq-ovqat iste'moli diversifikatsiyasiga ta'siri baholangan va tahlil qilingan. Bu tahlillar natijasida respublikadagi tomorqa xo'jaliklarida mahsulot ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, tomorqadan samarali foydalanish uchun dasturlar ishlab chiqilishi, aholini to'yimli va sog'lom ovqatlanishga o'rgatish, shuningdek, oiladagi ishlab chiqarish imkoniyatlaridan unumli foydalanish uchun takliflar berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, oziq-ovqat iste'molini yaxshilash bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish, tegishli vazirlik va tashkilotlarda sohaga oid huquqiy-me'yoriy asoslarni takomillashtirishga ko'mak beradi. Shuningdek, "Tomorqa xo'jaliklarida mahsulot ishlab chiqarish diversifikatsiyasi darajalarini oshirish" bo'yicha uslubiy qo'llanma va oliy ta'lim muassasalarida "Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti", "Oila xo'jaligi iqtisodiyoti" hamda "Xulq-atvor iqtisodiyoti" fanlarining dasturlarini takomillashtirilishida foydalanish tavsiya etiladi.

#### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Tomorqa xo'jaliklarida mahsulotlar ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashning aholi ovqatlanishiga ta'sirini baholash bo'yicha olingan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

tomorqa xo'jaliklarida o'simlikchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish diversifikatsiyasi "quyi" ( $1 < HHI \leq 0,7$ ), "o'rta" ( $0,7 \leq HHI < 0,4$ ) va "yuqori" ( $0,4 \leq HHI < 0$ ) mezonlar bo'yicha tomorqa xo'jaligi boshqaruvini maqbullashtirish taklifi Samarqand viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi tomonidan 2023-yil 28-martda tasdiqlangan uslubiy qo'llanmasi va O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 5-iyuldagi 06/27-06/1053-sonli ma'lumotnomasi). Kiritilgan takliflar asosida Samarqand viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi tizim tashkilotlari tomonidan Bulung'ur, Ishtixon, Jomboy, Oqdaryo, Pstdarg'om, Payariq, Qo'shrabot, Tayloq va Urgut tumanlaridagi tomorqa xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash darajasini oshirish chora-tadbirlari rejasi ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, taklif qilinayotgan me'zonlar tumanlardagi tegishli tashkilotlar tomonidan barqaror ishlab chiqarish amaliyotlarini joriy qilishda baholash ko'rsatkichi sifatida foydalanib boshlagan;

oziq-ovqat xavfsizligiga davlat yordamini kuchaytirishda (barqaror qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish, suv va energiya ta‘minotidan barqaror foydalanish, iqlimdan oqilona foydalanish, qayta ishlash va saqlash uchun maqbul ishlab chiqarish amaliyotlari hamda hosildan keyingi yo‘qotishlarni kamaytirishga qaratilgan) subsidiyalar ajratish bo‘yicha yagona siyosat olib borilishining maqsadga muvofiqligi taklifi O‘zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom oziqlanishni ta‘minlashning 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 5-iyuldagi 06/27-06/1053-sonli ma‘lumotnomasi). Mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda subsidiyalar orqali qo‘llab-quvvatlash siyosati tomorqa xo‘jaliklari tomonidan mahsulot ishlab chiqarish, ularga xom-ashyo ta‘minoti, daromad stabilligini ta‘minlashda narxlarni subsidiyalashda, zamonaviy suv tejamkor texnologiyalarni joriy qilish va qishloq xo‘jaligiga raqamli texnologiyalarni joriy qilishni subsidiyalash takliflari kiritilgan. Taklifning joriy etilishi tomorqa xo‘jaliklarda mahsulot ishlab chiqarish diversifikatsiyasining oshirilishi uy xo‘jaliklarida ovqatlanish xilma-xilligini o‘rtacha 7-8 tagacha oshirishga xizmat qiladi.

12 guruhdagi oziq-ovqat mahsulotlarini tomorqa xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning 2028-yilgacha prognoz parametrlari bo‘yicha berilgan takliflar O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining istiqboldagi rejalariga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 5-iyuldagi 06/27-06/1053-sonli ma‘lumotnomasi). Natijalarga ko‘ra, 2028-yilda 2022-yilga nisbatan ildizmevalarni ishlab chiqarish 1,2, sabzavot 1,1, meva va rezavorlar 1,1, go‘sh va go‘sh mahsulotlari 1,2, sut va sut mahsulotlari 1,2, tuxum 1,4, baliq 1,4, dukkakli mahsulotlar 1,1, asal 1,2 va ziravorlar 1,4 barobar ko‘p ishlab chiqarishi hisoblab topildi. Don kabi moyli ekinlarni ishlab chiqarish ko‘rsatkichi pasayish tendensiyasida bo‘lib, 2028-yilga borib don yetishtirish 53,6 ming tonnaga, moyli ekinlar mahsulotlarini ishlab chiqarish esa 470,8 tonnaga kamayishi prognoz qilingan. Mazkur prognoz natijalari Samarqand viloyatida tomorqalarda yetishtirilayotgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishini rejalashtirishida qo‘llash hisobga olingan;

qishloq joylarida uy xo‘jaliklariga “o‘z-o‘zini ta‘minlash-zahira-realizatsiya” bo‘yicha tartibga solingan raqamli dasturlash ta‘minotini joriy qilish markazini mahallalarda tashkil qilish orqali barqaror oziq-ovqat ta‘minotiga erishishga qaratilgan rejali-iqtisodiy mexanizm ishlab chiqilgan va O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 5-iyuldagi 06/27-06/1053-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur yondashuvlar ommaviy axborot vositalari, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy infratuzilmalar va turli shakldagi pazandalik kurslari rolini kuchaytirish hamda oilada oziq-ovqat iste‘molining raqamli menyusini ommalashtirishni o‘z ichiga olgan. Mahallalarda tashkil qilinishi tavsiya qilingan mahsus markaz Samarqand viloyatining Bulung‘ur, Payariq va Tayloq tumanlarida bittadan tanlab olingan mahallalarda pilot tarzida joriy qilindi. Mexanizmning joriy qilinishi natijasida qishloq oilalarida iste‘mol diversifikatsiya darajasi 9,6% oshgan, oilaning oziq-ovqat (qishloq xo‘jalik) mahsulotlari xarajatlari 12% kamayishiga olib kelgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya tadqiqotining natijalari 12 ta, jumladan 10 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalariga asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan mahalliy nashrlarda 3 ta va 1 ta xalqaro jurnalda maqolalar chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan hamda ilovalar bilan birga 130 sahifada bayon etilgan bo'lib, shundan: 19 ta jadval, 19 ta rasmdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, uning maqsadi va vazifalari, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati bayon etilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tatbiq etilganligi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi hamda uning tarkibiy tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tomorqa xo'jaliklarida mahsulotlar ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashning aholi ovqatlanishiga ta'sirini nazariy asoslash”** deb nomlangan birinchi bobida tomorqa xo'jaliklari mahsulotlar ishlab chiqarishi diversifikatsiyasining mazmun-mohiyati, ilmiy-uslubiy asoslari, diversifikatsiya darajasini o'lchash va hisoblashning afzal usullari ochib berilgan. Shuningdek, tomorqa xo'jaliklarining xususiyatlari o'rganilgan hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni diversifikatsiyalash bo'yicha xorij tajribalarining ahamiyatli jihatlari yoritib berilgan.

Monografik tadqiqotlarda qishloq xo'jaligi korxonasida diversifikatsiyaning uch bosqichli jarayon ekanligi keltirilgan. Birinchi bosqichda monokulturadan voz kechishni o'z ichiga olgan oziq-ovqat ekinlarini yetishtirish orqali samaradorlik darajasini oshirish belgilangan. Ikkinchi bosqichda xo'jaliklar bir nechta korxonalarga ega bo'lib, ular yilning barcha mavsumida sotishlari mumkin bo'lgan turli mahsulot yetishtirishni nazarda tutadi. Yakuniy bosqichda xo'jalikda bir ekindan (yoki chorvachilikdan) ko'proq ekinlar (yoki chorvachilik) yetishtirishga o'tishi yoki o'simlikchilik va chorvachilikni aralash tarzda olib borish aniq bo'ldi.

Mavzuni nazariy o'rganishlarimizdan kelib chiqib, tomorqa xo'jaliklarida ishlab chiqarishni ***diversifikatsiyalash*** – *“ixtiyorida mavjud resurslardan foydalanib, ehtiyojlarini hisobga olgan holda mahsulotlarni turli kombinatsiyalarda ishlab chiqarish”* deb ta'riflandi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish diversifikatsiyasi darajasini aniqlashning bir qator usullari mavjud. Ushbu usullarning har biri tegishli baholash indekslarini qo'llaydi. Bugungi kunda diversifikatsiya darajasini aniqlash indeksleri soni ko'p bo'lsa-da, iqtisodiy tahlillarda Simpson indeksi, Entropiya indeksi, Shannon indeksi, Ogive indeksi va Herfindahl-Hirshman indeksleri(HHI) ko'proq qo'llanilib kelinmoqda. Mazkur indekslarning barchasi bir-biriga yaqin natijalar ko'rsatadi.

Ushbu indekslarning har biri murakkablik darajasi, hisoblash hamda talqin qilish qulayligi nuqtai nazaridan o'zining afzalliklari va cheklovlariga ega. Quyidagi 1-jadvalda yuqorida keltirib o'tilgan indekslarning hisoblash formulasi, uning qo'llanilishi va alohida ajratilgan o'ziga xos jihatlari taqqoslangan.

Ushbu indekslarning o'ziga xos bo'lgan jihatlari tomorqa xo'jaliklarining mahsulot ishlab chiqarish diversifikatsiyasi darajasini baholashda HHI indeksi boshqa indeksarga qaraganda bir qator afzalliklarga mavjudligini ko'rsatdi. HHI hisoblanishining soddaligi va aniqligi bilan kutilayotgan natijani ishonchligini oshiradi.

HHI indeksini birinchi marta AQShda adliya departamenti va federal savdo komissiyasi kabi monopoliyaga qarshi kurashish masalalari bilan shug'ullanuvchi hukumat muassasalari ma'lum bir sohada bozor konsentratsiyasi o'zgarishini baholashda ushbu indeksdan foydalangan<sup>6 7</sup>.

Hozirda ilmiy tadqiqotlar ushbu indeks qishloq xo'jaligida ekinlar va chorvachilik diversifikatsiyasini aniqlashda keng qo'llanilmoqda. Sababi ushbu indeksni hisoblashda dehqonlar barcha turdagi ekinlarni yetishtirishni talab qilmaydi.

Diversifikatsiya darajasi oshgani sayin u asta-sekin kamayadi. Umumiy konsentratsiya mavjud bo'lganda 1 qiymatini oladi va diversifikatsiya darajasi oshgani sayin nolga intiladi.

HHI formulasidagi kuzatilayotgan to'plamdagi ekin yoki chorva hayvoni turi –  $i$ ,  $P_i$  – kuzatilayotgan ma'lum vaqtda  $i$  ekin maydoni yoki chorva hayvonlarining jamiga nisbatan ulushini anglatadi.

HHI boshqa indekslarga qaraganda juda kam sonli kuzatilayotgan to'plam ma'lumotlarida ham aniq natijalarni ko'rsata oladi<sup>8</sup>. Tadqiqotimizning konseptual asosida tomorqa xo'jaliklari ishlab chiqarishini diversifikatsiyalashning uy xo'jaliklari ovqatlanishiga ta'sirini o'rganishda ekinlar va chorvachilik diversifikatsiyasi indekslari hamda oziq-ovqat xavfsizligi ko'rsatkichlari, boshqa iqtisodiy, ijtimoiy-demografik omillar hisobga olingan. Uy xo'jaliklari darajasidagi oziq-ovqat xavfsizligi "Uy xo'jaliklari oziq-ovqat iste'moli xilma-xilligi ko'rsatkichi (Household dietary diversity score)" orqali ifodalandi.

Tomorqa xo'jaliklari diversifikatsiyasini uy xo'jaliklari ovqatlanishga ta'sirini baholash Puasson regressiya modeli orqali empirik tahlil qilindi. So'nggi bosqichda, tomorqa xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar istiqbol prognozlarini ARIMA modeli yordamida so'ngi besh yildagi ko'rsatkichlar dinamikasini hisoblashning nazariyasi va metodologiyasi ko'rib chiqildi.

Xorij olimlarining olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijalari o'rganilganda, kichik xo'jaliklarda mahsulotlar ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash uy xo'jaliklarining ovqatlanish sifati, ya'ni oziq-ovqat iste'moli diversifikatsiyasining oshishiga fan-texnika yutuqlarini qo'llash bo'yicha tajribalar taqqoslama tahlil qilingan. Tomorqa xo'jaliklari ishlab chiqarishini diversifikatsiyalash uy xo'jaliklari ovqatlanish xilma-xilligini oshirishini ta'minlashi nazariy jihatdan asoslangan.

---

<sup>6</sup> Hirschman, A. O. (1964). The paternity of an index. *The American economic review*, 54(5), 761-762.

<sup>7</sup> Hirschman, A. O. (1945). *National Power and the Structure of Foreign Trade*. Berkeley & Los Angeles, CA: University of California Press. Hirschman National Power and the Structure of Foreign Trade 1945.

<sup>8</sup> Hou, M., Qing, P., & Min, S. (2021). Multiple indicators of household dietary diversity in rural China: Effects of income and dietary knowledge. *Nutrition*, 91, 111406.

Tomorqa xo'jaliklarida ishlab chiqarish diversifikatsiyalarini aniqlash indekslarini taqqoslash<sup>9</sup>

Diversifikatsiya indeksi	Indeksning amaliyotdagi funksiyasi	Formulasi	Indeksning qo'llanilishi va uning o'ziga hos jihatlari
Simpson indeksi	Mavjud turlar sonini, har bir turning nisbiy ko'pligini hisobga olgan xolda xilma-xillikni o'lchaydi.	$SDI = 1 - \sum_{i=1}^N (P_i)^2$	Simpson indeksi odatda ekologik xilma-xilliklarni hisoblashda qo'llaniladi. Ekologiyada u mavjud o'simlik va hayvon turlarining sonini, shuningdek, har bir turning ko'pligini hisobga oladi.
Entropiya indeksi	Turli guruhlar o'rtasida taqsimotning tenglik darajasini o'lchaydi.	$H = \frac{1}{1-q} \ln\left(\sum_{i=1}^R p_i^q\right)$	Entropiya indeksi diversifikatsiya miqdorini aniqlashda qo'llanilib, indeks diversifikatsiya darajasini baholashda standart o'lchamlarni bermaydi.
Shannon indeksi	Ma'lumotlar to'plamidan tasodifiy olingan tur identifikatorini bashorat qilishdagi noaniqlikni aniqlaydi.	$H = - \sum P_i * \ln P$	Shannon indeksi to'plamidan tasodifiy olingan turlar ko'rsatkichlarini bashorat qilishdagi noaniqlikni aniqlaydi. Diversifikatsiyani aniqlashda indeksning to'plam ma'lumotlarining hajmi bilan bog'liq kamchiliklari kuzatiladi.
Ogiv indeksi	Tashkilotning diversifikatsiyalashish miqdorini o'lchaydi.	$OI = \frac{\sum_{i=1}^n [P_i - (\frac{1}{N})]^2}{(\frac{1}{N})}$	Ogiv indeksi ham Herfindahl Hirshman Indeksi kabi konsentrasiya darajasini baholashga qo'l keladi. Ammo indeksning kamchiliklaridan biri kuchli konsentrasiya va diversifikatsiyada yuqori chegara nolga yaqinlashadi.
Margalef indeksi	Turlarning o'rtasida xilma-xillik darajasini aniqlaydi.	$MI = (S - 1) \ln P$	Margalef indeksi ekinlar sonining qay darajada ko'pligini baholaydi. Mazkur indeksning turlarning xilma-xilligiga qaratilgan bo'lib, natija xilma-xillik darajasiga ko'proq bog'liqlikda bo'ladi.
Herfindahl Hirshman indeksi (HHI)	Turlar hajmini o'lchash va ular o'rtasidagi farqlarni ko'rsatadi.	$HHI = \sum_{i=1}^N (P_i)^2$	Herfindahl Hirshman indeksi iqtisodiy tahlillarda keng qo'llaniladigan indeks hisoblanib, u hisoblanish funksiyasiga ko'ra juda oddiy. Indeksni boshqa indeksarga nisbatan solishtirganda u diversifikatsiya darajasini hisoblashda turli chalkashliklardan qochadi.

<sup>9</sup> Muallifning monografik kuzatuvlari asosida tuzilgan.

Xulosa qilib aytganda, nazariy tushunchalar, xorij tajribalari, tomorqa xo‘jaliklarida diversifikatsiyani oshirish oziq-ovqat xavfsizligi ta‘minlanishiga olib kelishini tasdiqladi. Shu boisdan ushbu amaliyotlarni Samarqand viloyati tomorqa xo‘jaliklari misolida tadbiq etish, ilmiy va amaliy jihatdan asoslash muhim hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Tomorqa xo‘jaliklarida ishlab chiqarish diversifikatsiyasi hamda qishloq hududlarida ovqatlanish xilma-xilligining hozirgi holati va rivojlanish dinamikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotning ilmiy-uslubiy, amaliy ishlanma hamda natijalari asosida Samarqand viloyatida qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishining bugungi holati va ko‘rsatkichlari dinamikasi tahlil qilingan, Samarqand viloyati tomorqa xo‘jaliklari diversifikatsiya darajasi toifalarga ajratib o‘rganilgan, ular asosida xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Samarqand viloyatida bugungi kungacha qishloq xo‘jaligida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmi va tarkibi ijobiy tomonga o‘zgargan bo‘lib, 2021-yilda qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi, ya‘ni 59 foizini dehqon hamda tomorqa xo‘jaliklari yetishtirganligi aniqlandi.

Tadqiqotimizda asosiy agrooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tomorqa xo‘jaliklarining uy xo‘jaliklari ovqatlanishiga ta‘sirini o‘rganish masalalariga e‘tibor bergan holda, 2021-yil yanvar-mart oylari davomida Samarqand viloyatining 320 ta tomorqa xo‘jaliklaridan olingan so‘rovnoma ma‘lumotlari asosida ularning ekinlar va chorvachilik diversifikatsiyasi darajalari Herfindahl Hirshman indeksidan foydalanib hisoblab chiqildi.

Tomorqada mahsulot ishlab chiqarish oziq-ovqat iste‘moli tovarlarining katta qismini tashkil qilishini inobatga olib, tadqiqotimizda o‘simlikchilik va chorvachilik diversifikatsiyalarining yuqori, o‘rta va past darajalari mezonlari ishlab chiqilgan.

Natijalariga ko‘ra, ekinlar diversifikatsiyasi HHI indeksi qiymati 0,4 dan boshlab kamayganda yuqori, 0,7 gacha o‘rta va 0,7 dan kam bo‘lganda past deb, chorvachilikda diversifikatsiya indeksi 0,45 dan boshlab kamayganda yuqori, 0,75 gacha o‘rta va 0,75 dan kam bo‘lganda past deb topildi (2-3-jadvallar).

Diversifikatsiya darajasi indeksi aholining oziq-ovqat iste‘moliga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. O‘rganilgan ma‘lumotlarga asosida aholining oziq-ovqat iste‘moli mahsulotlarining 51 foizi sotib olingan mahsulotlar hisobiga to‘g‘ri kelsa, qolgan 49 foizi tomorqada yetishtirilgan mahsulotlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Tomorqa xo‘jaliklari mahsulotlar ishlab chiqarish diversifikatsiyasi uy xo‘jaliklari ovqatlanish xilma-xilligiga ta‘siri *Puasson(Poisson) regressiya modeli* orqali baholandi. Empirik tahlillar STATA 15 dasturiy ta‘minotidan foydalanib amalga oshirildi.

Regressiyani amalga oshirishdan oldin o‘zgaruvchilarni multikollinearlik darajasi (VIF) testi amalga oshirilgan va o‘zgaruvchilar o‘rtasida multikollinearlik yo‘qligi aniqlangan. Shuningdek, regression tahlilni amalga oshirishdan oldin, modelning qo‘yilayotgan gipotezaga statistik jihatdan mosligi testlar (Deviance muvofiqlik va Pearson muvofiqlik) orqali tekshirib ko‘rilgan. Modelning parametrlari qo‘yilgan gipotezaga mos kelishi yuqori statistik aniqlikda isbotlangan.

Regressiya tahlili natijasida Samarqandda uy xo‘jaliklarida oziq-ovqat mahsulotlari iste‘moli diversifikatsiya ko‘rsatkichining o‘zgarishiga tomorqada ekinlar va chorvachilik ishlab chiqarish diversifikatsiyasi indeksi yuqori statistik aniqlikda ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi aniqlangan.

## 2-jadval.

Tomorqa xo'jaliklari ekinlar diversifikatsiya darajalarining mezonlari<sup>10</sup>

Toifalar	Ekinlar diversifikatsiyasi					
	(HHI <sub>e</sub> ) <sup>*</sup>	Kkal <sup>***</sup>				
		1 - guruh	2 – guruh	3 - guruh	4 - guruh	5 - guruh
<b>Yuqori</b>	$HHI_e \leq 0.4$	> 960,4	> 1097,6	> 1293,6	> 1509,2	> 1646,4
<b>O'rta</b>	$0.4 < HHI_e \leq 0.7$	960,4 - 705,6	1097,6 – 823,2	1293,6 – 980	1509,2 – 1117,2	1646,4 - 1470
<b>Past</b>	$HHI_e > 0.7$	705,6 >	823,2 >	980 >	1117,2 >	1470 >

\*HHI<sub>e</sub> – Ekinlar diversifikatsiya indeksi (Herfindahl Hirshman Index); \*\*HHI<sub>ch</sub> – Chorva mahsulotlari diversifikatsiyasi (Herfindahl Hirshman Index); \*\*\*Kkal – Iste'mol kaloriyasi (Kilocalories)

## 3-jadval.

## Tomorqa xo'jaliklari chorvachilik diversifikatsiya darajalarining mezonlari

Toifalar	Chorvachilik diversifikatsiyasi					
	(HHI <sub>ch</sub> ) <sup>**</sup>	Kkal				
		1 – guruh	2 – guruh	3 - guruh	4 - guruh	5 - guruh
<b>Yuqori</b>	$HHI_{ch} \leq 0.45$	> 240,1	> 274,4	> 323,4	> 377,3	> 411,6
<b>O'rta</b>	$0.45 < HHI_{ch} \leq 0.75$	240,1 – 176,4	274,4 – 205,8	323,4 - 245	377,3 – 279,3	411,6 – 367,5
<b>Past</b>	$HHI_{ch} > 0.75$	176,4 >	205,8 >	245 >	279,3 >	367,5 >

<sup>10</sup> Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

Indeks natijasini nol qiymatga yaqinlashishi ishlab chiqarishning diversifikatsiyalashib borishini, aksincha esa konsentratsiyalashuvini anglatadi. Shunday ekan, tahlil natijasiga ko'ra, tomorqada o'simlikchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish diversifikatsiya indeksining bir birlikka pasayishi oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli diversifikatsiyasi ko'rsatkichini 0,84 koeffitsiyentga oshirishi hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish indeksining bir birlikka pasayishi esa 0.15 koeffitsiyentga oshirishini ko'rsatgan.

Shu bilan birgalikda, iste'mol diversifikatsiyasiga tomorqa yer maydonining bir sotixga oshishi, tomorqa xo'jaligi boshlig'i ma'lumotining oshib borishi, pazandalik o'quv kurslarida ishtiroki, pazandalikka oid internet manbalaridan foydalanish va har bir pazandalik teledasturlari sonining oshib borishi mos ravishda 0,004, 0,062, 0,098 va 0,486 koeffitsiyentga ortishini ko'rsatgan.

Ammo, oila vakillarining xorijda ishlashi (xorijdan pul o'tkazmalari kelishi), bozorgacha bo'lgan yo'lning har bir km ga oshib borishi, agro-vet dorixonalariga bo'lgan masofaning ortib borish iste'mol diversifikatsiyasining mos ravishda 0,16, 0,013 va 0,147 koeffitsiyentga kamayishiga olib kelishi isbotlangan.

Binobarin, oila a'zolari jon boshiga tushadigan daromadning oshib borishi va xonadondagi avtomobilning mavjudligi ijobiy marjinal ta'sirda bo'lsa-da, yuqori statistik aniqligini ko'rsatgan. Statistik ishonchlilik darajasi yuqori bo'lmasa-da, uy bekasi yoshining har bir yilga ortib borishi, tomorqada ishlab chiqarish diversifikatsiyasiga salbiy, ammo oiladagi ro'zg'or tajribasi esa ijobiy ta'sirda bo'lishi isbotlangan. Quyida keltirilgan 4-jadvalda so'rovnoma ma'lumotlariga asoslanibuy xo'jalik-lari avqatlanish xilma-xilligi omillarning marjinal ta'siri keltirilib o'tildi (4-jadval).

#### 4-jadval.


#### Puasson (Poisson) regressiya tahlili natijalari<sup>11</sup>

Oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli diversifikatsiyasi	Marjinal ta'sir (Standart og'ish)		
TDI (ekinlar)	.844 (.111) ***		
TDI (chorvachilik)	.159 (.07) **		
Bir kishiga to'g'ri keladigan yillik daromad, ln.	.006 (.009)		
Kredit	-.04 (.04)		
Xorijda oila a'zosining ishlashi	-.16 (.071) **		
Avtomobil mavjudligi	.026 (.031)		
Bozorgacha bo'lgan yo'l, km	-.013 (.006) **		
Agro-vet dorixona mavjudligi	-.147 (.054) ***		
Tomorqa yer maydoni, sotix	.004 (.001) ***		
Uy bekasining yoshi, ln.	-.11 (.073)		
Uy bekasining ish tajribasi, ln.	.048 (.03)		
Uy bekasining ma'lumoti	.062 (.037) *		
Pazandalik o'quv kurs	.094 (.054) *		
Pazandalik internet manbalari	.098 (.038) ***		
Pazandalik teledasturlari	.486 (.038) ***		
O'zgarma qiymat	1.593 (.329) ***		
Mean dependent var	3.449	SD dependent v	1.502
Pseudo r-squared	0.112	Number of obs	320
Chi-square	981.105	Prob > chi2	0.000
Akaike crit. (AIC)	1066.837	Bayesian crit. (BIC)	1126.827

\*\*\*  $p < .01$ , \*\*  $p < .05$ , \*  $p < .1$

<sup>11</sup> Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

Tahlillardan olingan natijalar tomorqada mahsulot ishlab chiqarish diversifikatsiyasi oziq-ovqat iste'mol diversifikatsiyasini ortishga olib kelishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, oziq-ovqat iste'moli diversifikatsiyasining oshishiga, pazandalik bo'yicha uy bekalarining bilim olishi, o'quv kurslarida ishtirok etishi, ular uchun internetdan foydalanish imkoniyatlarining oshishi va pazandachilik to'g'risidagi teledasturlari dastlab tomorqa keyin iste'mol diversifikatsiyasining ortishi ilmiy isbotlangan. Shu bilan birga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va diversifikatsiyasi, iqtisodiy, ijtimoiy-demografik omillar, infratuzilma, ovqatlanish bilim va ko'nikmalari kabi eng asosiy omillarni inobatga olib, uy xo'jaliklari ovqatlanish xilma-xilligining konseptual modeli ishlab chiqildi (1-rasm).



**1-rasm. Uy xo'jaliklari ovqatlanish xilma-xilligiga omillarning marjinal ta'sirini baholashning konseptual modeli<sup>12</sup>**

Yuqoridagi natijalar uy xo'jaliklarida ovqatlanish xilma-xilligining oshishida tomorqa xo'jaliklarida oziq-ovqat xavfsizligiga davlat yordamini kuchaytirishda (barqaror qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, suv va energiya ta'minotidan barqaror foydalanish, iqlimdan oqilona foydalanish, qayta ishlash va saqlash uchun maqbul ishlab chiqarish amaliyotlari hamda hosildan keyingi yo'qotishlarni kamaytirishga qaratilgan) subsidiyalar ajratish bo'yicha yagona siyosat olib borilishining maqsadga muvofiqligi asoslandi.

<sup>12</sup> Muallif tadqiqotlari asosida tayyorlangan.

Dissertatsiya ishining **“Tomorqa xo‘jaliklarida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish, qishloq aholisining ovqatlanish diversifikatsiyasini oshirish yo‘llari”** nomli uchinchi bobida Samarqand viloyatidagi tomorqa xo‘jaliklari mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2028-yilgacha prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan hamda qishloq oilalari ovqatlanish xilma-xilligini oshirishning innovatsion yechimlari tadqiqot natijalariga ilmiy asoslanib topilgan.

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, aholi iste‘molini to‘yimli va yetarli miqdorda ta‘minlash qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarishiga to‘sqinlik qiladigan turli noaniqliklar, aholi sonining o‘sishi, iste‘molchilarning talabi, resurslarning holati va iqlim o‘zgarishi kabi bir qator omillarning ta‘sirida oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan umumiy talab darajasi o‘zgarib turadi. Vaholangki, oziq-ovqat mahsulotlari iste‘moli turlarining ortib borishi, aholini ovqatlanish sifatini oshishiga, vitaminlarga boy mahsulot iste‘molini ortishiga olib keladi.

Samarqand viloyatidagi tomorqa xo‘jaliklarida 12 ta oziq-ovqat mahsulotlari guruhlarining ishlab chiqarish hajmi 2028-yilgacha prognozi ARIMA modeli orqali hisoblab topilgan.

Prognozlashtirishni amalga oshirishda tahlil uchun qo‘llanilayotgan ma‘lumotlarga muvofiq bo‘lgan statistik modelni tanlashda vaqt seriyalarini statsionarligi Kengaytirilgan Dikki-Fuller testi orqali tekshirildi. Tomorqa xo‘jaliklarida 12 ta oziq-ovqat mahsulotlari prognozlari uchun mos bo‘lgan alohida modellar tanlab olindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, 2028-yilga borib Samarqand viloyatidagi tomorqa xo‘jaliklarida dukkakli don ishlab chiqarish 5945,1 tonna, o‘sib borish trendi o‘rtacha 98,8 ga; tuxum ishlab chiqarish 1079,2 mln. dona, o‘sib borish trendi 47,6 ga; sut va sut mahsulotlari 1497,9 ming tonna, o‘sib borish trendi 34,4 ga; asal ishlab chiqarish 873,5 tonna, o‘sib borish trendi 21,9 ga; baliq 465,7 ming tonna, o‘sib borish trendi 21,3 ga; sabzavotlar 858,3 ming tonna, o‘sib borish trendi 16,8 ga; ildizmevalar (Kartoshka) 569,4 ming tonna, o‘sib borish trendi 13,9 ga; go‘sht va go‘sht mahsulotlari 301,1 ming tonna, o‘sib borish trendi 6,3 ga; meva va rezavorlar 209,6 ming tonna, o‘sib borish trendi 3,8 ga; ziravorlar 1,1 tonna, o‘sib borish trendi 0,04 ga tengligi aniqlangan. Mahsulotlar ichida don va yog‘ olinadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish pasayishi kuzatilgan. Ular 2028-yilga borib mos ravishda 34,2 ming tonna va 470,8 tonnaga teng bo‘lgan. Ularning pasayib borish trendi don ishlab chiqarishda o‘rtacha 8,9 ga va yog‘ olinadigan ekinlarda esa 50,7 ga teng bo‘lishi kuzatilgan (5-jadval).

Xulosa qilib aytganda, prognoz hisobi natijalari 12 ta oziq-ovqat guruhiga kiruvchi mahsulotlardan 10 tasini ishlab chiqarish tendensiyasini ortishini ko‘rsatdi. Ammo bu ko‘rsatkichlar yetarli emas. Tomorqada mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirishni rag‘batlantiruvchi usullarni qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tomorqa yerlaridan samarali foydalanish uchun tomorqa yer egalarini savodxonligini muntazam oshirib borish, oilani oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo‘lishi va mikro elementlarga boy mahsulotlarni ko‘proq iste‘mol qilishlari uchun tomorqa xo‘jaliklari oilani sifatli, arzon, kafolatli, doimiy va diversifikatsiyalangan oziq-ovqat bilan ta‘minlaydi.

5-jadval.

Samarqand viloyati tomorqa xo‘jaliklarining oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish prognozi<sup>13</sup>.

Yillar	A	B	D	E	F	G	H	I	J	K	L	M
2012	158,0	314,8	536,9	130,6	192,3	891,5	324,0	138,0	1165,3	4328,3	513,3	0,4
